

**DAVLAT SIYOSATINING OILALARGA VA DEMOGRAFIK XULQ-ATVORGA
TA'SIRI: XITOIY TAJRIBASI**

Hikmatov Fathulla Habibullayevich

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti,
Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti,
siyosiy fanlar kafedrasida dotsenti siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

fatkhulla_xikmatov@mail.ru

Mirsolixova Laziza Rustam qizi

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti,
amaliy siyosatshunoslik yo'nalishi magistri.

lazizamirsolixova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22077154>

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlat oila siyosatining demografik xulq-atvoriga ta'siri Xitoy Xalq Respublikasi tajribasi misolida tahlil qilinadi. So'nggi qirq besh yil davomida Xitoy "bir farzand siyosati"dan "uch farzand siyosati" gacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi, biroq bu davlat siyosati tug'ilish darajasini kutilgan darajada boshqara olmadi. Maqolada davlat demografik siyosatining reproduktiv xulq-atvoriga ta'sir mexanizmlarini institutsional-tarixiy tahlil asosida aniqlanadi. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, institutsional tahlil va tarixiy-genetik yondashuv qo'llanildi, bu esa 1949–2026 yillar oralig'idagi siyosat bosqichlarini yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, qat'iy cheklovchi siyosatning demografik xulq-atvoriga ta'siri katta bo'lsa-da, uni bekor qilish orqali tug'ilishni tiklash ancha murakkab va uzoq muddatli jarayondir. Maqolaning amaliy ahamiyati past tug'ilish tendensiyasiga duch kelayotgan mintaqaviy davlatlar uchun siyosat saboqlarini shakllantirishdan iborat.

Kalit so'zlar: oila siyosati, demografik xulq-atvor, pronatalist siyosat, bir farzand siyosati, uch farzand siyosati, demografik xavfsizlik, aholi boshqaruvi, Xitoy.

Аннотация. В данной статье анализируется влияние государственной семейной политики на демографическое поведение на примере Китайской Народной Республики. За последние сорок пять лет Китай перешел от «политики одного ребенка» к «политике трех детей», однако эта государственная политика не смогла контролировать уровень рождаемости до ожидаемого уровня. В статье на основе институционально-исторического анализа определены механизмы влияния государственной демографической политики на репродуктивное поведение. В исследовании используется сравнительный анализ, институциональный анализ и историко-генетический подход, что позволяет рассматривать этапы политики с 1949 по 2026 год как целостную систему. Результаты показывают, что, хотя влияние жесткой ограничительной политики на демографическое поведение значительно, восстановление рождаемости путем ее отмены является довольно сложным и долгосрочным процессом. Практическая значимость статьи заключается в формулировании уроков политики для стран региона, сталкивающихся с тенденцией к низкой рождаемости.

Ключевые слова: семейная политика, демографическое поведение, пронаталистская политика, политика одного ребёнка, политика трёх детей, демографическая безопасность, управление населением, Китай.

Abstract. This article analyzes the impact of state family policy on demographic behavior using the experience of the People's Republic of China. Over the past forty-five years, China has gone from the "one-child policy" to the "three-child policy", but this state policy has not been able to control the fertility rate to the expected level. The article identifies the mechanisms of the impact of state demographic policy on reproductive behavior based on institutional-historical analysis. The study uses a comparative analysis, institutional analysis, and a historical-genetic approach, which allows us to consider the policy stages from 1949 to 2026 as a holistic system.

The results show that although the impact of a strict restrictive policy on demographic behavior is significant, restoring fertility by abolishing it is a rather complex and long-term process. The practical significance of the article is to formulate policy lessons for regional countries facing a trend of low fertility.

Keywords: family policy, demographic behavior, pronatalist policy, one-child policy, three-child policy, demographic security, population governance, China.

KIRISH

XXI asrning birinchi choragida demografik omil geosiyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy strategiyalarning markaziy elementlaridan biriga aylandi. Agar XX asrning ikkinchi yarmida rivojlanayotgan davlatlar uchun asosiy muammo aholi sonining o'sishini nazorat qilosh bo'lsa, XXI asr boshlariga kelib bu holat tubdan o'zgardi: dunyo aholisining tobora ko'proq qismi tug'ilish darajasining pasayishi, aholining qarishi va mehnat resurslarining qisqarishi muammolariga duch kelmoqda¹. Ushbu tendensiyaning eng yorqin va bir vaqtning o'zida eng ziddiyatli namunasi Xitoy Xalq Respublikasi tajribasidir.

1979 yilda joriy etilgan "bir farzand siyosati" insoniyat tarixidagi eng yirik va eng qattiq davlat demografik intervensiyalaridan biri bo'lib, u o'ttiz olti yil davomida amal qildi². Biroq 2015-2021 yillar oralig'ida Xitoy rahbariyati o'z siyosatini tubdan qayta ko'rib chiqishga majbur bo'ldi: avval "ikki farzand", so'ngra 2021 - yil 31 - mayda "uch farzand siyosati"ga o'tildi³. Xitoy Milliy statistika byurosi ma'lumotlariga ko'ra, 2025 - yilda mamlakatda atigi 7,92 million bola tug'ilgan bo'lib, bu ko'rsatkich "ikki farzand siyosati" ta'sirida erishilgan eng yuqori nuqta - 2016-yildagi 17,86 million ko'rsatkichning atigi 44 foizini tashkil etadi⁴. Umumiy tug'ilish koeffitsienti (TFR) 2023 - yilga kelib 1,0–1,1 darajasiga tushib, rasmiy prognoz qilingan 1,8 ko'rsatkichidan sezilarli darajada pastroq bo'lib chiqdi⁵. Bu raqamlar shuni ko'rsatadiki, uch marta o'zgartirilgan davlat siyosatiga qaramay, demografik xulq-atvor avtonom dinamikaga ega bo'lib, uni faqat

¹ UNFPA. State of World Population 2025: The Real Fertility Crisis. — New York: UNFPA, 2025.

² Greenhalgh S. Just One Child: Science and Policy in Deng's China. — Berkeley: University of California Press, 2008. — P. 23–45.

³ Assessing China's Policy Efforts to Boost Fertility. — Santa Monica, CA: RAND Corporation, 2025. — P. 2.

⁴ China National Bureau of Statistics. Rasmiy statistik ma'lumotlar, 2025-yil tug'ilishlar soni.

⁵ Assessing China's Policy Efforts to Boost Fertility. — Santa Monica, CA: RAND Corporation, 2025. — P. 5–8.

huquqiy-ma'muriy vositalar bilan boshqarish imkoni cheklangan. Mavzuning O'zbekiston va kengroq postsovet mintaqasi uchun dolzarbligi ikki jihatdan namoyon bo'ladi: birinchidan, mintaqa davlatlari - xususan Rossiya - demografik xavfsizlik strategiyalarini ishlab chiqishda xorijiy tajribani, jumladan Xitoy misolini faol o'rganmoqda; ikkinchidan, O'zbekistonning o'zi ham kelajakda demografik o'tish jarayonining keyingi bosqichlariga kirib borar ekan, oila siyosati instrumentlarining uzoq muddatli samaradorligini oldindan tushunish strategik ahamiyat kasb etadi.

Demografik siyosat samaradorligi muammosi ikki qarama-qarshi nazariy pozitsiya atrofida shakllanadi. Bir tarafdin, klassik demografik o'tish nazariyoti vakillari (F. Notestein, A. Koul) tug'ilish darajasining pasayishini avvalambor ijtimoiy-iqtisodiy modernizatsiya natijasi sifatida talqin qiladilar⁶, bunda davlat siyosatiga ikkinchi darajali rol beriladi. Boshqa tarafdin, Xitoy tajribasi kabi holatlar davlatning ma'muriy-huquqiy vositalar orqali demografik jarayonlarga bevosita va kuchli ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga ega ekanligini isbotlaydi⁷.

Xitoy demografik siyosati turli mutaxassislarda katta qiziqishga sabab bo'lgan: "bir farzand siyosati"ning ijtimoiy-demografik oqibatlari (jins nisbati buzilishi, aholi qarishi); siyosatning tarixiy-institutsional genezisi⁸; so'nggi pronatalist islohotlarning dastlabki natijalari⁹.

Biroq quyidagi jihatlar yetarlicha tadqiq etilmagan: Xitoy tajribasining siyosiy hokimiyat resurslari nazariyasi nuqtai nazaridan tahlili; uch bosqichli siyosat evolyutsiyasini (cheklash - yumshatish - rag'batlantirish) yagona institutsional model doirasida qiyosiy tahlil qilish; hamda ushbu tajribadan post-sovet, jumladan Markaziy Osiyo davlatlari uchun transferabellik darajasini baholash.

Tadqiqot quyidagi **savollarga** javob izlaydi: Xitoyning turli tarixiy bosqichlaridagi oila siyosati instrumentlari qanday institutsional mexanizmlar orqali demografik xulq-atvorga ta'sir ko'rsatgan? Nima uchun cheklovchi siyosatning ta'sir kuchi rag'batlantiruvchi siyosatning ta'sir kuchidan sezilarli darajada yuqori bo'ldi? Iqtisodiy, institutsional va madaniy omillarning o'zaro nisbati demografik siyosat samaradorligini qanday belgilaydi? Va nihoyat, Xitoy tajribasidan qanday saboqlarni past tug'ilish tendensiyasiga yaqinlashayotgan boshqa davlatlar uchun ko'chirish mumkin?

ADABIYOTLAR SHARHI

Xitoy oila siyosati va demografik xulq-atvor muammosi xalqaro ilmiy adabiyotda uzoq tarixga ega bo'lib, uni shartli ravishda to'rt yo'nalishga ajratish mumkin: (1) demografik o'tishning umumnazariy asoslari; (2) oilaviy xulq-atvorning iqtisodiy nazariyasi; (3) Xitoy "bir farzand siyosati"ning tarixiy-institutsional genezisi va ijtimoiy oqibatlari; (4) so'nggi pronatalist burilishning dastlabki natijalari.

Demografik o'tish nazariyasining klassik va zamonaviy talqinlari

⁶Notestein F.W. Population — The Long View // Food for the World / ed. T.W. Schultz. — Chicago: University of Chicago Press, 1945.

⁷Greenhalgh S., Winckler E.A. Governing China's Population: From Leninist to Neoliberal Biopolitics. — Stanford, CA: Stanford University Press, 2005. — P. 15–20.

⁸Greenhalgh S., Winckler E.A. Op. cit. — P. 45–60.

⁹UNFPA. State of World Population 2025: The Real Fertility Crisis. — New York: UNFPA, 2025.

Demografik o'tish nazariyasining asoschisi hisoblangan F. Notestein tug'ilish va o'lim darajasining pasayishini avvalambor jamiyat modernizatsiyasining tabiiy oqibati sifatida talqin qildi¹⁰. Uning fikricha, iqtisodiy taraqqiyot, urbanizatsiya va bolalar o'limining kamayishi oilalarni ko'p farzandlilikdan voz kechishga "tabiiy" ravishda undaydi. A.Koul bu nazariyani rivojlantirib, tug'ilishning barqaror pasayishi uchun uchta zaruriy shart-sharoitni belgiladi: tug'ilish "ongli tanlov doirasi"ga kirishi, kam farzandlilik afzal ko'rilishi va kontratsepsiya vositalari mavjud bo'lishi lozimligini ta'kidladi¹¹. Bu ikki muallifning yondashuvi asosan evolyutsion-iqtisodiy determinizmga tayanadi — ya'ni davlat siyosati emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy tuzilma o'zgarishi demografik xulq-atvorni belgilaydi.

Biroq J. Bongaarts tomonidan ishlab chiqilgan "proksimal determinantlar" modelida ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan haqiqiy tug'ilish ko'rsatkichi o'rtasida bir qator oraliq mexanizmlar (nikoh yoshi, kontratsepsiya darajasi, abort chastotasi) mavjudligini ko'rsatib, davlat siyosati aynan shu oraliq bo'g'inlarga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkinligini nazariy jihatdan asoslaydi¹².

Bu model Xitoy tajribasini tushunishda muhim hisoblanadi. Chunki, davlat "ongli tanlov"ni o'zgartira olmasa ham, kontratsepsiya va abortga administrativ ravishda kirish imkoniyatini o'zgartirish orqali tug'ilishga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin.

R.Lesthaeghe va D.van de Kaalarning fikricha, zamonaviy jamiyatlarda tug'ilishning pasayishi endi nafaqat iqtisodiy zaruratdan, balki individual avtonomiya va o'z-o'zini anglashning yangi qadriyat tizimidan kelib chiqadi¹³.

Ushbu to'rt nazariyani qiyoslash shuni ko'rsatadiki, ular birgalikda uch darajali tahliliy modelni tashkil qiladi: makro daraja (Notestein, Koul), mezo daraja (Bongaarts) va mikro daraja (Lesthaeghe, Caldwell). Mazkur tadqiqotda ishlab chiqilayotgan uch bosqichli tahliliy model aynan shu uch darajani birlashtirishga asoslanadi.

G Oilaviy xulq-atvorning iqtisodiy nazariyasi

G. Becker tomonidan ishlab chiqilgan oila iqtisodiy nazariyasi demografik xulq-atvorni ratsional tanlov nazariyasi orqali izohlaydi¹⁴. Uning fikricha, oilalar farzand sonini "sifat-miqdor almashinuvi" (quantity-quality trade-off) asosida tanlaydi: daromad va ta'lim darajasi oshgani sari ota-onalar kam sonli, ammo "sifatli" (ya'ni ko'proq investitsiya qilingan) farzandlarni afzal ko'radi. Bu nazariya Xitoy tajribasini tushunishda alohida ahamiyat kasb etadi, chunki u davlatning "bir farzand siyosati"ni nima uchun aynan shahar, o'qimishli qatlamlar orasida osonroq qabul qilinganini, qishloq joylarida esa kuchliroq qarshilikka uchraganini izohlab beradi.

"Bir farzand siyosati"ning tarixiy-institutsional genezisi

¹⁰Notestein F.W. Population — The Long View // Food for the World / ed. T.W. Schultz. — Chicago: University of Chicago Press, 1945.

¹¹Coale A.J. The Demographic Transition Reconsidered // International Population Conference. Vol. 1. — Liège: IUSSP, 1973. — P. 53–72.

¹²Bongaarts J. A Framework for Analyzing the Proximate Determinants of Fertility // Population and Development Review. — 1978. — Vol. 4, № 1. — P. 105–132.

¹³Lesthaeghe R., van de Kaa D.J. Twee demografische transitie? // Bevolking: Groei en Krimp. — Deventer: Van Loghum Slaterus, 1986. — P. 9–24.

¹⁴Becker G.S. A Treatise on the Family. Enlarged ed. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1991. — 424 p.

S. Grinxalx o'zining "Just One Child" asarida siyosatning kelib chiqishini yangicha nuqtai nazardan yoritadi: uning tadqiqotiga ko'ra, "bir farzand siyosati" iqtisodchilar yoki demograflar emas, balki mudofaa sanoati muhandislari tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ular aholi dinamikasini texnik tizim sifatida modellashdirdilar¹⁵. Grinxalx va E.Vinkler birgalikdagi ishlarida bu jarayonni "leninistik biosiyosatdan neoliberal biosiyosatga o'tish" sifatida talqin qilib, davlatning aholi ustidan nazoratini vaqt o'tishi bilan qanday transformatsiyalanganini ko'rsatadilar¹⁶.

J.Banisterning "China's Changing Population" asari esa empirik-statistik yondashuvni namoyish etadi: u Xitoy rasmiy statistikasining ishonchliligini har tomonlama tahlil qilib, mavjud ma'lumotlarni tuzatilgan holda taqdim etadi. Bu esa keyingi barcha tadqiqotchilar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda¹⁷.

J.Li va Vang Fen o'zlarining "One Quarter of Humanity" asarida 1700–2000 yillar oralig'ini qamrab oladilar va Maltus nazariyasining Xitoyga tatbiq etilishi asossiz ekanligini isbotlaydilar: ularning fikricha, Xitoyning an'anaviy oilaviy tizimi allaqachon o'z-o'zini tartibga solish mexanizmlariga ega bo'lgan, shu sababli XX asr oxiridagi davlat intervensiyasini "tarixiy zaruriyat" sifatida emas, balki siyosiy tanlov sifatida baholash lozim¹⁸. Bu xulosa muhim tanqidiy nuqtai nazarni taqdim etadi: agar an'anaviy Xitoy jamiyati o'zini o'zi tartibga sola olgan bo'lsa, "bir farzand siyosati" zaruriyat emas, balki alternativ siyosiy variantlardan biri bo'lgan, degan xulosaga kelish mumkin.

"Bir farzand siyosati"ning ijtimoiy-demografik oqibatlari

Y.Tsay va Vang Fen o'zlarining keng qamrovli tahlilida siyosatning ikki asosiy demografik oqibatini - jins nisbatining buzilishini va aholining tezkor qarishini - ijtimoiy jins, oila va davlat munosabatlari kontekstida tahlil qiladilar¹⁹. Ularning xulosasiga ko'ra, siyosatning uzoq muddatli ta'siri qisqa muddatli "muvaqqafiyat"idan ancha og'irroq bo'lib chiqdi. Vang Fen, Tsay va Gu birgalikdagi maqolasida esa siyosatni tarixiy istiqbolda baholab, uni "o'z maqsadiga erishgan, ammo shu maqsadning o'zi noto'g'ri belgilangan siyosat" sifatida tavsiflaydilar²⁰.

I.Fusyanning "Big Country with an Empty Nest" asari boshqa mualliflardan farqli o'laroq, dastlab Xitoyda taqiqlangan, keyinchalik esa rasmiy tan olingan noyob intellektual yo'lni bosib o'tgan²¹. I.Fusyan boshqa demograflardan farqli o'laroq, Xitoy rasmiy statistikasiga shubha bilan qaraydi va 2019 - yildayoq mamlakat aholisi rasmiy ma'lumotlardan sezilarli darajada kam bo'lishi mumkinligini bashorat qilgan edi.

¹⁵Greenhalgh S. Just One Child: Science and Policy in Deng's China. — Berkeley: University of California Press, 2008. — P. 61–89.

¹⁶Greenhalgh S., Winckler E.A. Governing China's Population: From Leninist to Neoliberal Biopolitics. — Stanford, CA: Stanford University Press, 2005.

¹⁷Banister J. China's Changing Population. — Stanford, CA: Stanford University Press, 1987. — 488 p.

¹⁸Lee J.Z., Wang Feng. One Quarter of Humanity: Malthusian Mythology and Chinese Realities, 1700–2000. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1999.

¹⁹Cai Y., Wang Feng. Op. cit. — P. 590–595.

²⁰Wang F., Cai Y., Gu B. Population, Policy, and Politics: How Will History Judge China's One-Child Policy? // Population and Development Review. — 2013. — Vol. 38, Suppl. 1. — P. 115–129.

²¹Yi Fuxian. Big Country with an Empty Nest. — Beijing: China Development Press, 2013.

Bu bashorat keyinchalik rasmiy statistika tomonidan qisman tasdiqlandi²². Bu ikki muallifning qarashlarini qiyoslash shuni ko'rsatadiki, Xitoy demografik statistikasining ishonchliligi masalasi ilmiy jamoatchilikda hali ham munozarali bo'lib qolmoqda, shu sababli mazkur tadqiqotda faqat rasmiy va xalqaro tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Pronatalist burilish va uning dastlabki natijalari

2021 - yildagi "uch farzand siyosati"ga o'tish xalqaro tashkilotlar va tahlil markazlari tomonidan faol o'rganilmoqda. BMT Aholi jamg'armasi (UNFPA) 2025 - yilgi "Haqiqiy tug'ilish inqirozi" hisobotida muhim nazariy burilishni taklif qiladi: hisobotga ko'ra, muammo "aholi pasayishi"ning o'zida emas, balki odamlarning o'zlari xohlagan miqdorda farzand ko'ra olmasligida - reproduktiv avtonomiyaning cheklanganligida²³. RAND korporatsiyasining 2025 - yilgi tahlili esa Xitoyning 2015-2025 - yillardagi pronatalist siyosat instrumentlarini ijtimoiy tarmoqlardagi fikr-mulohazalar tahlili bilan birlashtirib, aholi siyosatga past ishonch bildirayotganini ko'rsatadi²⁴. Bu ikki hisobotni Grinxalx va Banisterning tarixiy tahlili bilan qiyoslash muhim nazariy xulosaga olib keladi: agar "bir farzand siyosati" davrida davlat cheklov vositalari orqali tez va kuchli natijaga erishgan bo'lsa, "uch farzand siyosati" davrida davlat qo'lida bunday kuchli va tezkor vositalar mavjud emas. Aynan shu vositalar asimmetriyasi - majburlov instrumentlarining rag'batlantirish instrumentlariga nisbatan tabiiy ravishda kuchliroq ta'sir ko'rsatishi - mazkur tadqiqotning markaziy gipotezasini nazariy jihatdan tasdiqlaydi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotning metodologik asosi tanlangan mavzuning ikki xususiyatidan kelib chiqadi: birinchidan, Xitoyning oila siyosati - deyarli yetmish yillik tarixiy davrni qamrab oladi, bu esa davrlashtirish va tarixiy-genetik tahlilni taqozo etadi; ikkinchidan, siyosat instrumentlarining samaradorligini institutsional jihatdan baholash va ulardan boshqa davlatlar uchun xulosa chiqarish maqsadida qiyosiy va institutsional tahlil usullarini zarur qiladi. Shu sababli tadqiqotda bir necha metodlardan foydalanildi.

Tarixiy-genetik tahlil metodi Xitoy oila siyosatining 1949 yildan hozirgi kungacha bo'lgan evolyutsiyasini ko'rib chiqish, har bir bosqichning oldingi bosqichdan qanday kelib chiqqanini va navbatdagi bosqichga qanday zamin tayyorlaganini aniqlash imkonini beradi.

Institutsional tahlil metodi davlat demografik siyosatini alohida qarorlar yig'indisi sifatida emas, balki huquqiy normalar, ma'muriy organlar (masalan, Davlat oilaviy rejalashtirish komissiyasi) va nazorat-sanksiya mexanizmlaridan tashkil topgan yaxlit institutsional tizim sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Qiyosiy tahlil metodi ikki darajada qo'llaniladi. Birinchi - ichki qiyoslash - Xitoyning uch siyosat bosqichi ("bir farzand", "ikki farzand", "uch farzand") bir-biri bilan bir xil ko'rsatkichlar (tug'ilish koeffitsienti, nikoh yoshi, jins nisbati) bo'yicha qiyoslanadi.

²²Yi Fuxian. Op. cit. — P. 210–225.

²³UNFPA. State of World Population 2025: The Real Fertility Crisis. — New York: UNFPA, 2025.

²⁴Assessing China's Policy Efforts to Boost Fertility. — Santa Monica, CA: RAND Corporation, 2025.

Ikkinchi - tashqi qiyoslash darajasida - Xitoy tajribasi zarur o'rinlarda boshqa Sharqiy Osiyo davlatlari (Janubiy Koreya, Yaponiya) hamda postsovet davlatlari demografik siyosati bilan taqqoslanadi.

Statistik va trend tahlili natijalar bo'limining empirik asosini tashkil etadi. Xitoy Milliy statistika byurosi, BMT Aholi bo'limi, Jahon banki va UNFPA tomonidan e'lon qilingan rasmiy ko'rsatkichlar (tug'ilish koeffitsienti, tug'ilishlar soni, jins nisbati, o'rtacha nikoh yoshi) so'nggi o'n yillik davr kesimida tahlil qilinadi.

Case-study (holat tahlili) sifatida Xitoyning asoslanishi. Xitoyning tanlanishi bir necha omil bilan izohlanadi. Birinchidan, Xitoy dunyoda demografik siyosatning eng katta miqyosdagi va eng uzoq muddatli tabiiy eksperimentini o'tkazgan davlat hisoblanadi. Bu esa siyosat-natija bog'liqligini kuzatish uchun noyob empirik material beradi. Ikkinchidan, Xitoy o'z siyosatini bir necha marta tubdan o'zgartirgani (cheklashdan erkinlashtirishgacha) uni **ichki nazorat guruhiga** ega bo'lgan holat sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi - ya'ni bir xil mamlakat, bir xil madaniy-institutsional muhitda turli siyosat rejimlarining natijalarini solishtirish mumkin, bu esa boshqa mamlakatlararo qiyoslashlarga xos bo'lgan "aralashuvchi o'zgaruvchilar" muammosini qisman bartaraf etadi. Uchinchidan, Xitoy tajribasi hozirgi kunda ko'plab davlatlar, jumladan Rossiya va O'zbekiston uchun amaliy siyosat modeli sifatida faol muhokama qilinmoqda, bu esa tadqiqotning amaliy dolzarbligini ta'minlaydi.

NATIJALAR

Xitoyning oila siyosati evolyutsiyasi: 1949–1978 yillar

Xitoy Xalq Respublikasi tashkil topgan dastlabki yigirma yilda (1949–1969) davlat siyosati aholi o'sishini rag'batlantirish tomon yo'naltirilgan edi. Mao Szedun boshchiligidagi rahbariyat ko'p sonli aholini iqtisodiy va harbiy qudratning muhim manbai sifatida ko'rar edi. Bu davrda kontratsepsiya vositalari targ'ib qilinmagan, aksincha, ko'p farzandli oilalar ijtimoiy jihatdan rag'batlantirilgan.


Biroq 1970-yillarning boshiga kelib, tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan aholi soni davlat rahbariyatini siyosatni qayta ko'rib chiqishga undadi. 1971 - yilda joriy etilgan "kech-uzoq-kam" siyosati - kech turmush qurish, farzandlar orasida uzoqroq interval saqlash va kamroq farzand ko'rish - dastlabki, hali ma'muriy jazo choralarisiz cheklov bosqichini boshlab berdi. Bu davr muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u shuni ko'rsatadiki, tug'ilish darajasining sezilarli pasayishi aslida rasman "bir farzand siyosati" e'lon qilinishidan (1979-1980) oldin, ya'ni yumshoq tavsiyaviy choralar davridayoq boshlangan edi. Bu holat J. Li va Vang Fenning tarixiy tahlilida alohida ta'kidlangan bo'lib, ular bunday dinamikani Xitoy jamiyatining ilgaridan mavjud bo'lgan o'z-o'zini tartibga solish salohiyati bilan bog'laydilar.

"Bir farzand siyosati" davri (1979/1980–2015)

1980 - yilda rasman e'lon qilingan va 2015 - yilgacha amal qilgan "bir farzand siyosati" davlat tomonidan aholi o'sishini ma'muriy-huquqiy majburlov orqali boshqarishning eng izchil namunasi bo'ldi. Siyosat instrumentlari quyidagilarni o'z ichiga oldi: ruxsatnoma tizimi, moliyaviy jarimalar, ish joyi va lavozimga bog'liq sanksiyalar, hamda ba'zi mintaqalarda majburiy

kontratsepsiya va sterilizatsiya amaliyoti. Grinxalxning tadqiqotiga ko'ra, bu siyosat turli mintaqalarda turlicha qattqlik darajasida amalga oshirilgan, murakkab ma'muriy tizim edi.

Siyosatning demografik natijalari ikki xil tekislikda namoyon bo'ldi. Bir tarafdin, umumiy tug'ilish koeffitsienti siyosat boshlanishidan oldingi taxminan 5,8 dan 1990-yillarga kelib 2,0 dan pastga, 2000-yillarga kelib esa 1,5–1,6 atrofiga tushdi (1-diagrammaga qarang). Boshqa tarafdin, siyosatning ikkita o'ziga xos, faqat majburlov orqali tushuntirilishi mumkin bo'lgan oqibati aniq namoyon bo'ldi: jins nisbatining keskin buzilishi va aholining tezlashtirilgan qarishi.



Manba: Xitoy Milliy statistika byurosi; BMT Jahon aholi istiqbollari; RAND Corporation (2025) hisob-kitoblari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Tug'ilishda jins nisbati an'anaviy biologik me'yor - 100 qiz bolaga 103-107 o'g'il bola - dan sezilarli darajada oshib, 2000-2010 yillar oralig'ida umummilliy darajada 120 dan yuqori darajaga yetdi, 2010-yilgi aholi ro'yxatida esa 121,2 ko'rsatkichi bilan o'z cho'qqisiga chiqdi (3-diagrammaga qarang). Tsay va Vang Fenning tahliliga ko'ra, bu hodisa ultratovush diagnostikasi texnologiyasining ommalashuvi bilan "bir farzand siyosati"ning bir vaqtda mos kelishi natijasida yuzaga keldi. Bu - institutsional cheklov bilan madaniy omil o'rtasidagi o'zaro ta'sirning aniq namunasidir.

Ikkinchi muhim oqibat - aholi yosh tuzilmasining tezlashtirilgan o'zgarishi. Mehnatga layoqatli yosh guruhining nisbiy ulushi 2010-yillarning o'rtalaridan pasaya boshladi, bu esa "demografik dividend" deb ataluvchi iqtisodiy o'sish omilining muddatidan oldin tugashiga olib keldi. Aynan shu iqtisodiy xavotir 2013–2015 yillarda siyosatni qayta ko'rib chiqishning asosiy rasmiy sababi sifatida e'lon qilindi.

Yumshatish bosqichi: "ikki farzand siyosati" (2013–2021)

Siyosat yumshatilishi ikki bosqichda amalga oshirildi. 2013 - yilda "selektiv ikki farzand" siyosati joriy etildi, biroq bu chora kutilgan natijani bermadi. Shu sababli 2016 - yil 1 - yanvardan barcha oilalar uchun umumiy "ikki farzand siyosati" joriy qilindi.

Rasmiy prognozlarga ko'ra, siyosat yumshatilishi tug'ilishlar sonining sezilarli o'sishiga olib kelishi kutilgan edi. Amalda esa 2016 - yilda qisqa muddatli, bir yillik o'sish kuzatildi, so'ngra tug'ilishlar soni yana pasayish tendensiyasiga qaytdi va 2017 - yildan boshlab har yili muntazam kamayib bordi (2-diagrammaga qarang). Bu holat - siyosat cheklovi olib tashlangandan keyin ham tug'ilishning "tabiiy" tiklanmasligining dalil hisoblanadi.



Manba: Xitoy Milliy statistika byurosi rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Bu natijani izohlashda RAND korporatsiyasining tahlili muhim rol o'ynaydi: unga ko'ra, 2016 - yilga kelib tug'ilish xulq-atvorini belgilovchi omillar tarkibi allaqachon tubdan o'zgargan edi - endi asosiy to'siq huquqiy cheklov emas, balki farzand tarbiyasining yuqori qiymati, uy-joy narxlarining o'sishi, ayollarning mehnat bozoridagi ishtiroki va shahar turmush tarzi bilan bog'liq yangi ijtimoiy-iqtisodiy omillar edi.

1. "Uch farzand siyosati" davri (2021–2026)

2021 - yil 31 - mayda Xitoy Kommunistik partiyasi Siyosiy byurosi qarori bilan "uch farzand siyosati" e'lon qilindi, 20 - avgustda esa bu qaror qonuniy shaklga keltirildi. Bu safar davlat o'zining siyosiy vositalarini tubdan o'zgartirdi: endi ma'muriy taqiq va jarima o'rniga rag'batlantiruvchi choralar majmuasi joriy etildi - bolalar tarbiyasi uchun soliq chegirmalari, uzaytirilgan ota-onalik ta'tili, bolalar bog'chalari tarmog'ini kengaytirish dasturlari, ba'zi mintaqalarda uy-joy sotib olishda subsidiyalar va naqd pul to'lovlari.

Biroq statistik ma'lumotlar bu choralarning samaradorligi cheklanganligini ko'rsatadi. Xitoy Milliy statistika byurosi ma'lumotlariga ko'ra, 2025 - yilda mamlakatda taxminan 7,92 million bola tug'ilgan - bu 2016-yildagi 17,86 million ("ikki farzand siyosati" ta'siridagi eng yuqori ko'rsatkich)dan 56 foizga kam, umumiy tug'ilishlar soni to'qqiz yil ichida deyarli ikki baravar qisqargan.

Umumiy tug'ilish koeffitsienti 2023 - yilga kelib 1,0–1,1 darajasiga tushib, oddiy takror ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan 2,1 ko'rsatkichidan ikki baravardan ortiq pastroq bo'lib qoldi.

BMT Aholi jamg'armasining (UNFPA) 2025 - yilgi hisobotiga ko'ra, reproduktiv yoshdagi kattalarning taxminan 20 foizi o'zlari xohlagan miqdorda farzand ko'ra olmasligiga ishonadi, buning asosiy sabablari - ota-onalik xarajatlarining yuqoriligi, ish joyi beqarorligi, uy-joy yetishmovchiligi va mos hayotiy hamroh topa olmaslik. Bunda muammo huquqiy taqiqda emas, balki chuqur ijtimoiy-iqtisodiy va institutsional to'siqlarda joylashgan.

Demografik xulq-atvorning kengroq ko'rsatkichlari


Davlat siyosatining ta'siri faqat tug'ilish koeffitsienti bilan cheklanmaydi — u demografik xulq-atvorning butun majmuasiga ta'sir ko'rsatadi.

Nikoh yoshi va nikohlanish darajasi. "Bir farzand siyosati" davridayoq joriy etilgan "kech turmush qurish" targ'iboti o'rtacha birinchi nikoh yoshining barqaror o'sishiga hissa qo'shdi. Bu tendensiya keyingi o'n yilliklarda davlat siyosatidan mustaqil ravishda, ta'lim darajasining o'sishi va shahar turmush tarzi ta'sirida yanada kuchaydi. So'nggi o'n yillikda kuzatilayotgan nikohlar sonining kamayishi tendensiyasi tug'ilish koeffitsienti pasayishining muhim oraliq mexanizmi (J. Bongaarts atamasi bilan aytganda - "proksimal determinant") hisoblanadi, chunki Xitoy jamiyatida farzand ko'rish an'anaviy ravishda rasmiy nikoh bilan uzviy bog'liq.

Urbanizatsiya. 1980 yilda Xitoy aholisining atigi taxminan 20 foizi shaharlarda yashagan bo'lsa, 2020-yillarga kelib bu ko'rsatkich 60 foizdan oshdi. Urbanizatsiya darajasi bilan tug'ilish koeffitsienti o'rtasidagi teskari bog'liqlik klassik demografik o'tish nazariyasi (Notestein, Koul) bashoratiga to'liq mos keladi - biroq muhim metodologik nuqta shundaki, Xitoyda bu jarayon davlat siyosati (cheklovchi oila siyosati va rag'batlantirilgan sanoat urbanizatsiyasi) tomonidan sun'iy ravishda tezlashtirilgan, tabiiy modernizatsiya sur'atlaridan ancha oldinga o'tib ketgan.


Mehnat bozori va gender munosabatlari. Ayollarning oliy ta'lim va mehnat bozoridagi ishtirokining o'sishi - o'zi ijobiy ijtimoiy o'zgarish bo'lsa-da - tug'ilish xulq-atvoriga qo'shimcha cheklovchi ta'sir ko'rsatmoqda. UNFPA hisobotida qayd etilganidek, ayollarning ish va oila majburiyatlarini muvozanatlashtirish qiyinligi hozirgi kunda farzand ko'rishdan bosh tortishning asosiy sabablaridan biri sifatida ko'rsatilmoqda. Bu holat mazkur tadqiqotning mikro daraja (Lesthaeghe, Caldwell nazariyalari) tahlili bilan mos keladi: individual, ayniqsa ayollarning avtonomiyasi va martaba ustuvorliklari zamonaviy Xitoy jamiyatida farzand ko'rish qarorlariga davlat siyosatidan ko'ra kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda.

Jins nisbatlari va uzoq muddatli oqibatlar. "Bir farzand siyosati" davrida shakllangan tug'ilishdagi jins nisbati buzilishi hozirgi kunda nikoh bozoriga ta'sir ko'rsatmoqda: erkaklar sonining ayollar sonidan sezilarli ortiqchiligi ("ortiqcha erkaklar" muammosi) ayniqsa qishloq mintaqalarida nikoh imkoniyatlarini cheklamoqda, bu esa o'z navbatida tug'ilish koeffitsientiga qo'shimcha bosim o'tkazmoqda - bu o'zini o'zi kuchaytiruvchi teskari aloqa hodisasining aniq namunasidir: bir bosqichdagi siyosat oqibati keyingi bosqichdagi demografik muammoni yanada chuqurlashtiradi.



Manba: Xitoy aholi ro'yxatlari rasmiy ma'lumotlari (1982, 1990, 2000, 2010, 2020) asosida muallif tomonidan tuzilgan (Li M., Jiang Q. Overestimated SRB and Missing Girls in China, 2021).

Qarish va mehnat resurslari. Xitoy hozirgi kunda dunyoda eng tez sur'atlarda qariyotgan yirik iqtisodiyotlardan biriga aylandi. RAND tahliliga ko'ra, Xitoy 2024–2054 yillar oralig'ida dunyoda eng katta mutlaq aholi yo'qotishini (204 million kishi) boshdan kechirishi, asrning oxiriga kelib esa umumiy aholi yo'qotishi 786 million kishiga yetishi mumkin. Bu bashoratlar "bir farzand siyosati" davrida shakllangan yosh tuzilmaviy "teshik"ning uzoq muddatli, deyarli qaytarib bo'lmaydigan xarakterini ko'rsatadi - hatto agar tug'ilish koeffitsienti bugundan boshlab keskin oshsa ham, mehnatga layoqatli aholi sonidagi qisqarish keyingi o'n yilliklar davomida davom etadi, chunki bu ko'rsatkich allaqachon tug'ilgan kohortalar hajmi bilan belgilanadi(4-diagrammaga qarang).



Manba: Xitoy aholi ro'yxatlari (2000, 2020) va BMT Jahon aholi istiqbollari (2024-nashr) baholashlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1-jadval. Xitoy oila siyosati bosqichlari (1949–2026)

Davr	Siyosat nomi	Asosiy instrumentlar	Huquqiy asos
1949–1969	Pronatalist rag'batlantirish	Ko'p farzandlilikni ijtimoiy targ'ib qilish	Rasmiy siyosat hujjati mavjud emas
1971–1979	"Kech–uzoq–kam" siyosati	Tavsiyaviy cheklovlar, targ'ibot	Ma'muriy yo'riqnomalar
1980–2013	"Bir farzand siyosati" (qattiq bosqich)	Ruxsatnoma tizimi, jarimalar, majburiy chora-tadbirlar	Konstitutsiyaviy va ma'muriy normalar
2013–2015	"Selektiv ikki farzand"	Cheklangan istisno tizimi	KPK qarori
2016–2021	Umumiy "ikki farzand siyosati"	Ruxsat barcha oilalar uchun	Milliy qonun (2015)
2021–hozirgi	"Uch farzand siyosati"	Soliq imtiyozlari, ta'til, subsidiyalar	KPK qarori (2021), Milliy qonun (2021)

2-jadval. Tug'ilishlar soni: eng yuqori ko'rsatkich va 2025-yilgi holat taqqoslamasi

Ko'rsatkich	2016-yil ("ikki farzand siyosati" cho'qqisi)	2025-yilgi real ko'rsatkich	Farq
Yillik tug'ilishlar soni (mln)	17,86	7,92	–55,6%

3-jadval. Tug'ilishda jins nisbati dinamikasi, aholi ro'yxatlari bo'yicha (1982–2020)

Yil (aholi ro'yxati)	100 qizga to'g'ri keluvchi o'g'il bolalar soni	Biologik me'yordan og'ish
1982	107,6	Me'yor chegarasida
1990	111,5	Yuqori
2000	119,9	Yuqori
2010	121,2 (eng yuqori nuqta)	Kritik
2020	111,3	Kamaymoqda, ammo

Yil (aholi ro'yxati)	100 qizga to'g'ri keluvchi o'g'il bolalar soni	Biologik me'yordan og'ish
		hali yuqori

4-jadval. Cheklovchi va rag'batlantiruvchi siyosat instrumentlarining qiyosiy tahlili

Mezon	Cheklovchi bosqich (1980–2015)	Rag'batlantiruvchi bosqich (2016–2026)
Asosiy instrument turi	Ma'muriy-huquqiy majburlov	Iqtisodiy rag'batlantirish
Ta'sir tezligi	Yuqori (bir necha yil ichida)	Past (o'n yildan ortiq, natija hali cheklangan)
Ta'sir etuvchi daraja (nazariy model)	Proksimal (bevosita)	Distal (bilvosita)
Kutilgan natija bilan real natija farqi	Kam farqli	Katta farqli
Asosiy nazariy izoh	Bongaarts modeli	Becker, Lesthaeghe modellari

5-jadval. Postsovet mintaqasi uchun siyosat saboqlari (xulosa jadvali)

Xitoy tajribasidan saboq	Postsovet mintaqasi uchun amaliy ahamiyat
Cheklovchi siyosat tezkor, ammo asimmetrik ta'sirga ega	Demografik siyosatni erta, proaktiv loyihalash zarurligi
Rag'batlantirish faqat proksimal omillarga ta'sir qilganda samarali	Infratuzilma va xizmatlarga urg'u berish, faqat pul to'lovlariga emas
Gender tengsizligi tug'ilish xulq-atvoriga kuchli ta'sir ko'rsatadi	Oila va mehnat siyosatini uyg'unlashtirish zarurati
Institutsional ishonch samaradorlikka bevosita bog'liq	Davlat-fuqaro muloqotini mustahkamlash choralari

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalarini xalqaro nazariy adabiyot va boshqa davlatlar tajribasi bilan taqqoslash bir qator muhim ilmiy xulosalarga olib keladi.

Natijalarning demografik o'tish nazariyasi bilan nisbati. Notestein va Koulning klassik nazariyasi tug'ilish darajasining pasayishini modernizatsiyaning "tabiiy" oqibati sifatida talqin qiladi, biroq Xitoy tajribasi bu modelni qisman qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, "bir farzand siyosati" davrida tug'ilishning pasayishi modernizatsiya

sur'atlaridan sezilarli darajada oldinga o'tib ketgan. Biroq 2016 va 2021 yillardagi erkinlashtirish natijalari klassik nazariyaning boshqa jihatini tasdiqlaydi: bir marta "tabiiy" chegaradan pastga tushirilgan tug'ilish darajasini faqat huquqiy ruxsat orqali qaytarib bo'lmaydi, chunki jamiyat allaqachon yangi - past tug'ilishli - muvozanat holatiga o'tib bo'lgan.

Vositalar asimmetriyasining nazariy izohi. Cheklovchi va rag'batlantiruvchi siyosat samaradorligi o'rtasidagi asimmetriya - Bongaartsning proksimal determinantlar modeli orqali izohlanishi mumkin. Majburlov instrumentlari bevosita, ma'muriy yo'l bilan proksimal determinantlarga ta'sir ko'rsatadi va shu sababli tezkor natija beradi. Rag'batlantirish instrumentlari esa distal darajadagi omillarga ta'sir ko'rsatadi, bu esa reproduktiv qarorga aylanishi uchun ancha uzoqroq va noaniqroq zanjirni bosib o'tishi kerak.

Xalqaro tajriba bilan taqqoslash. Janubiy Koreya va Yaponiyaning o'xshash pronatalist siyosat tajribasi Xitoy natijalarini tasdiqlaydi: har ikki davlat ham sezilarli moliyaviy resurslarni tug'ilishni rag'batlantirishga sarflagan bo'lsa-da, TFR ko'rsatkichi dunyodagi eng past darajalarda qolmoqda. Bu uch davlat o'rtasidagi umumiylik shuni ko'rsatadiki, aniqlangan asimmetriya hodisasi Xitoyga xos institutsional xususiyat emas, balki Sharqiy Osiyo rivojlanish modeliga xos kengroq nazariy qonuniyat bo'lishi mumkin.

Natijalarning ilmiy ahamiyati. Tadqiqot natijalari demografik siyosat nazariyasiga ikki muhim hissa qo'shadi: birinchidan, ular davlat demografik siyosatini baholashda "samaradorlik" tushunchasini yo'nalishga nisbatan differensiallashtirilgan holda qo'llash zarurligini ko'rsatadi; ikkinchidan, ular institutsional, iqtisodiy va madaniy omillarning o'zaro ta'sirini uch darajali tahliliy model orqali tizimlashtirish orqali, keyingi qiyosiy tadqiqotlar uchun qo'llash mumkin bo'lgan metodologik asos yaratadi.

XULOSA

Xitoy Xalq Respublikasining 1949–2026 yillar oralig'idagi oila siyosati tajribasini institutsional-tarixiy tahlil qilish natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi.

1. Davlat demografik siyosati asimmetrik samaradorlikka ega. Ma'muriy-huquqiy majburlov instrumentlari reproduktiv xulq-atvorni pasaytirishda yuqori va tezkor samaraga ega bo'lgan bo'lsa, iqtisodiy rag'batlantirish instrumentlari tug'ilishni tiklashda sezilarli darajada kam va sekin samara berdi.

2. Bir marta pasaygan tug'ilish darajasi mustaqil ijtimoiy me'yorga aylanadi. 2016 va 2021 yillardagi siyosat erkinlashuvi tug'ilishning darhol tiklanishiga olib kelmadi, bu esa "ikkinchi demografik o'tish" nazariyasini tasdiqlaydi.

3. Cheklovchi siyosatning uzoq muddatli, ko'pincha kutilmagan institutsional oqibatlari bo'ladi. Jins nisbatining buzilishi va aholining tezlashtirilgan qarishi institutsional cheklov bilan mavjud madaniy omillarning o'zaro ta'sirida vujudga kelgan oqibatlardir.

4. Demografik siyosat samaradorligini uch darajali (institutsional - iqtisodiy - madaniy) modelda tahlil qilish zarur. Faqat huquqiy-institutsional o'zgarishlarga tayangan tahlil real demografik xulq-atvor dinamikasini tushuntira olmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Banister J. China's Changing Population. — Stanford, CA: Stanford University Press, 1987. — 488 p.
2. Becker G.S. A Treatise on the Family. Enlarged ed. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1991. — 424 p.
3. Bongaarts J. A Framework for Analyzing the Proximate Determinants of Fertility // Population and Development Review. — 1978. — Vol. 4, № 1. — P. 105–132.
4. Cai Y., Wang Feng. The Social and Sociological Consequences of China's One-Child Policy // Annual Review of Sociology. — 2021. — Vol. 47. — P. 587–606.
5. Caldwell J.C. Theory of Fertility Decline. — London: Academic Press, 1982.
6. Coale A.J. The Demographic Transition Reconsidered // International Population Conference. Vol. 1. — Liège: IUSSP, 1973. — P. 53–72.
7. Greenhalgh S. Just One Child: Science and Policy in Deng's China. — Berkeley: University of California Press, 2008. — 403 p.
8. Greenhalgh S., Winckler E.A. Governing China's Population: From Leninist to Neoliberal Biopolitics. — Stanford, CA: Stanford University Press, 2005. — 394 p.
9. Lee J.Z., Wang Feng. One Quarter of Humanity: Malthusian Mythology and Chinese Realities, 1700–2000. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1999.
10. Li M., Jiang Q. Overestimated SRB and Missing Girls in China // Frontiers in Sociology. — 2021. — DOI: 10.3389/fsoc.2021.756364.
11. Lesthaeghe R., van de Kaa D.J. Twee demografische transitie? // Bevolking: Groei en Krimp. — Deventer: Van Loghum Slaterus, 1986. — P. 9–24.
12. Notestein F.W. Population — The Long View // Food for the World / ed. T.W. Schultz. — Chicago: University of Chicago Press, 1945.
13. Wang F., Cai Y., Gu B. Population, Policy, and Politics: How Will History Judge China's One-Child Policy? // Population and Development Review. — 2013. — Vol. 38, Suppl. 1. — P. 115–129.
14. Yi Fuxian. Big Country with an Empty Nest— Beijing: China Development Press, 2013.
15. Assessing China's Policy Efforts to Boost Fertility. — Santa Monica, CA: RAND Corporation, 2025.
16. China National Bureau of Statistics. Rasmiy statistik ma'lumotlar (2020-yil aholi ro'yxati, 2021–2025-yillar tug'ilish ko'rsatkichlari). — Beijing, 2025.
17. UNFPA. State of World Population 2025: The Real Fertility Crisis. — New York: UNFPA, 2025.
18. Xitoy Kommunistik partiyasi Siyosiy byurosining uch farzand siyosati to'g'risidagi qarori, 2021-yil 31-may.
19. Xitoy Xalq vakillari yig'ilishining Aholi va oilaviy rejalashtirish to'g'risidagi qonuniga o'zgartirish, 2021-yil 20-avgust.